

TEZ-TEZ SO‘RALADIGAN SAVOLLARGA-JAVOBLAR

1. Magistraturaga hujjat qanday topshiriladi. Borib topshiramizmi yoki elektron tartibda amalga oshiriladimi?

Javob: Magistraturaga hujjatlar <https://my.edu.uz> elektron platforma orqali 1-iyuldan 30-iyulgacha (30-iyul kuni ham) qabul qilinadi.

2. Magistraturaga topshirish uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

Javob: Tashqi abituriyentlar: diplom va uning ilovasi hamda til bilish sertifikatini (kamida B2 darajadagi til sertifikatini talab qilinadi).

Ichki abituriyentlar: diplom va uning ilovasi, mehnat daftarchasi va ma'lumotnoma (obyektivka).

3. Tashqi abituriyent kim?

Javob: Tashqi abituriyent bu – oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va Nizom talablari asosida magistraturaga kirish tanlovida ishtirok etuvchi shaxs.

4. Ichki abituriyent kim?

Javob: Ichki abituriyent esa – oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan, sud tizimi va sudyalarning hamjamiyati organlari va muassasalarida kamida 3 yillik ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Prezident Administratsiyasi rahbari tomonidan tayinlanadigan yoki kelishib olinadigan lavozimlarda faoliyat yuritib kelayotgan hamda ushbu Nizom talablari asosida magistraturaga kirish tanlovida ishtirok etuvchi shaxs.

5. Magistraturaga tashqi abituriyentlar o'qishga qabul qilish tartibi qanday?

Javob: Tashqi abituriyentlar Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentyabrdagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarining magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq bakalavriat diplomi bo'yicha to'plagan ballari o'rtacha ko'rsatkichining ketma-ketligiga ko'ra o'qishga qabul qilinadi.

6. Ichki abituriyentlar uchun qo'shimcha tanlov o'tkaziladimi?

Javob: Ha. Ichki abituriyentlar mutaxassislik fani va chet tili bo'yicha tanlovdan o'tadilar. Agar ichki abituriyentning chet tilidan kamida B2 darajadagi til sertifikatini bo'lsa maksimal ball beriladi.

7. Tashqi abituriyentlar uchun xorijiy tilni bilish sertifikatini eng kam darajasi belgilanganmi?

Javob: Ha belgilangan, kamida B2 darajadagi til sertifikatini talab qilinadi.

8. Ta'lim qanday shakllarda tashkil etiladi?

Javob: Magistraturada ta'lim kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida tashkil etiladi.

9. Magistraturada o'qish muddati qancha?

Javob: Magistraturada o‘qish muddati – kunduzgi va kechki ta’lim shakllari uchun bir yilni tashkil etadi.

10. Magistraturada o‘qish qaysi tilda olib boriladi.

Javob: Magistraturada o‘qish o‘zbek tilida olib boriladi.

11. Magistraturada qanday mutaxassisliklar mavjud?

Javob: Faqat “Sud faoliyati” magistratura mutaxassisligi mavjud.

12. Kechki ta’lim qanday tashkil etiladi?

Javob: Kechki ta’lim shaklida mashg‘ulotlar odatda haftasiga **5 kun** (dushanba – juma) o‘tkaziladi. Kunlik dars mashg‘ulotlari 4 soat (2 para)ni tashkil etadi. Darslar soat 18:20 dan 21:20 gacha o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

13. Magistraturaga tanlov qachon o‘tkaziladi?

Javob: Tanlovlar **avgust oyida** o‘tkaziladi.

14. “Sud faoliyati” magistratura mutaxassisligini tamomlasam menga qanday imtiyozlar beriladi.

Javob: Imtiyozlar mavjud emas. Faqatgina magistratura mutaxassisligi bo‘yicha davlat namunasidagi diplom beriladi.

15. Ichki abituriyentlarda xorijiy til sertifikatini bo‘lsa, chet tilidan test topshirish kerakmi?

Javob: Yo‘q. Xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi kamida B2 darajadagi til sertifikatini mavjud bo‘lsa, chet tilidan test topshirilmaydi. Maksimal ball beriladi.

16. Magistraturada o‘qish bilan bir vaqtda ishlash mumkinmi?

Javob: Ha. Ayniqsa kechki ta’lim shakli mehnat faoliyatini davom ettirish imkoniyatini hisobga olgan holda tashkil etilgan.

17. “Sud faoliyati” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturada grant bormi? Yoki o‘qitish to‘lov kontrakt asosida tashkil etiladimi?

Javob: Magistraturada o‘qitish faqat to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

18. Magistraturada to‘lov-kontrakt miqdori qancha?

Javob: Kontrakt qiymati kunduzgi ta’lim uchun 19.980.000,00 so‘mni va kechki ta’lim uchun 21.978.000 so‘mni tashkil etadi.

19. “Sud faoliyati” bo‘yicha magistraturani tamomlasam sudyalikka nomzod sifatida tanlovlarda ishtirok etsam bo‘ladimi?

Javob: Yo‘q, ishtirok eta olmaysiz. Sudyalikka nomzod bo‘lish uchun Akademianing sudyalik lavozimlariga nomzodlarni kasbiy qayta tayyorlash kurslarida o‘qishingiz lozim bo‘ladi.

20. Magistraturaga o‘qishga kirishim uchun muayyan yosh chegarasi belgilanganmi?

Javob: Yo‘q, yosh chegarasi mavjud emas.

21. Magistraturaga o‘qishga kirishim uchun abituriyentlarning muayyan toifalariga respublikaning boshqa oliy ta’lim tashkilotlariga kirish uchun qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etiladimi?

Javob: Yo‘q, imtiyozlar tadbiq etilmaydi.

22. Magistraturada stipendiya beriladimi?

Javob: Yo‘q, stipendiya berilmaydi. E’lon qilingan magistratura to‘lov-kontart miqdorida stipendiya inobatga olinmagan.

23. Ichki abituriyent sifatida magistraturaga barcha sud xodimlari ariza topshirishi mumkinmi?

Javob: Yo‘q, sud tizimida egallab turgan lavozimi bo‘yicha yuridik ish staji xisoblanadigan hamda mansab darajalari beriladigan sud apparati xodimlari, boshqaruv xodimlari va sudyalari ariza topshirishlari mumkin.

24. Xotin-qizlar uchun kontrakt to‘lashda biror yengillik bormi?

Javob: Ha, akademiya magistraturasiga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan xotin-qizlarning kontrakt summasini to‘lash bo‘yicha imtiyozlar qonunchilikka muvofiq qo‘llanadi. Unga ko‘ra, talabgorlar to‘lov-kontraktning to‘liq summasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan qoplab berish yuzasidan Akademiya rektori nomiga o‘quv yilining 15-sentyabriga qadar ariza bilan murojaat etadilar. Ushbu muddatdan keyin taqdim etilgan arizalar ko‘rib chiqilmaydi.

25. Magistraturaga qabul yurisprudensiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lishi shartmi? Turdosh oliy ta’lim yo‘nalishlari hujjat topshirsa bo‘ladimi?

Javob: Ha bo‘ladi. Har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan magistraturaga qabul bo‘yicha turdosh oliy ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxati e’lon qilib boriladi. Agar “Sud faoliyati” mutaxassisligi siz ta’lim olgan yo‘nalishga turdosh oliy ta’lim yo‘nalishi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa hujjat topshirsangiz bo‘ladi.

26. Ichki abituriyentlar uchun magistraturaga kirishda qaysi fanlardan test topshiriqlari bo‘ladi.

Javob: Testlar asosan, jinoyat huquqi va jinoyat protsessual huquqi, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda moddiy va protsessual huquq normalarini qo‘llash, iqtisodiy sudlarda moddiy va protsessual huquq normalarini qo‘llash, ma’muriy sudlarda moddiy va protsessual huquq normalarini qo‘llash amaliyotidan hamda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, konstitutsiyaviy huquq asoslari fanlari doirasida tuziladi.

27. Men sudya sifatida 10 yil davomida ishlaganman. Lekin hozirda sud tizimida ishlamayman. Men ichki abituriyent sifatida ariza topshirishim mumkinmi?

Javob: Yo‘q, ichki abituriyent sifatida ariza topshira olmaysiz. Chunki, Vazirlar Mahkamasining 327-son qaroriga muvofiq sud tizimi va sudyalarning hamjamiyati organlari va muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan xodimlarga ichki abituriyent sifatida hujjat topshirishlari mumkin.

28. Ichki abituriyentlar baholash mezonlari qanday?

Javob: Ichki abituriyentlar mutaxassislik fanlari va chet tilidan (sertifikat bo‘lmasa) test shaklida o‘tkaziladi. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha 40 ta test – 80 ball, chet tili bo‘yicha 10 ta test uchun – 20 ball beriladi. Maksimal ball – 100 ballni tashkil etadi.

29. Ichki abituriyentlar uchun kirish imtixonlari o‘tkazilguniga qadar imtixonlar bo‘yicha tushuntirish beriladimi?

Javob: Ha, kirish imtihonlari o‘tkazilishiga qadar Akademiya qabul komissiyasi tomonidan sinov fanlari bo‘yicha tushuntirishlari beriladi.

30. Abituriyent imtihonga kechiksa nima bo‘ladi?

Javob: Belgilangan vaqtdan kechikkanlar sinovga kiritilmaydi va ular uchun qo‘shimcha sinov o‘tkazilmaydi.

31. Test sinovlari kim tomonidan o‘tkaziladi?

Javob: Akademiya yoki uning topshirig‘iga ko‘ra Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘tkaziladi.